


IV. INVESTITSİYALAR VA QURILISH

2025-yil yanvar- iyun oylarida 18 214,1 mlrd. so‘m asosiy kapitalga investitsiyalar o‘zlashtirilib, o‘shish sur‘ati 2024- yilning yanvar- iyuniga nisbatan 112,0 % ni tashkil etdi.

Markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan 1 985,1 mlrd. so‘m yoki jami investitsiyalar hajmining 10,9 foiz va o‘tgan yildagi ko‘rsatkichga nisbatan 105,2 % o‘zlashtirildi.

Mos ravishda, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 16 229,0 mlrd. so‘m yoki jami investitsiyalar hajmining 112,9 foiz va o‘tgan yildagi ko‘rsatkichga nisbatan 89,1 % o‘zlashtirildi.




Asosiy kapitalga investitsiyalar yangi asosiy fondlarni sotib olish va takror ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan xarajatlar majmuini bildiradi.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning statistik hisobi, qo‘shimcha qiymat solig‘ini qo‘shgan holda, hisobot davrida amaldagi narxlarda, to‘lov amalga oshirilgan paytdan qat‘iy nazar, haqiqatda o‘zlashtirilgan hajm miqdorida amalga oshiriladi.


So‘nggi 5 yildagi asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi dinamikasi shuni ko‘rsatmoqdaki, u deyarli 2,5 martaga ko‘payib, o‘shish tendensiyasiga ega bo‘lmoqda.

2025-yil yanvar-iyun oylarida asosiy kapitalga investitsiyalarning hajmi dinamikasi, mlrd. so‘m



So‘ngi yillardagi ularning o‘shish sur‘atlarini ko‘radigan bo‘lsak, 2021 - yilda eng past o‘shish sur‘ati qayd etilganini va 77,3 % qayd etilgan, shundan so‘ng 2022-yillarda yana o‘shish tendensiyasiga ega bo‘lib, joriy davrda esa ko‘rsatkich 112,0 % qayd etilganini ko‘rishimiz mumkin.

Asosiy kapitalga investitsiyalar o‘shish sur‘atlari dinamikasi, % da



Jami investitsiyalar hajmida, markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi, 2024- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan ulushi 0,7 punktga kamayib, 10,9 % ni yoki 1 985,1 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Mos ravishda, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 16 229,0 mlrd. so‘m yoki jami investitsiyalarning 89,1 % ulushi o‘zlashtirilib, 2024- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 0,7 punktga ko‘paydi.







Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar (2025-yil yanvar-iyun)

	mlrd. so'm	o'sish sur'ati, % da	hajmga nisbatan, % da
Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar	18 214,1	112,0	100,0
Markazlashgan investitsiyalar:	1 985,1	105,2	10,9
Budjet mablag'idan	326,0	128,7	1,8
Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi	-	-	-
O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida bo'lgan chet el kreditlari	1 659,1	101,5	9,1
Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi	-	-	-
Markazlashmagan investitsiyalar:	16 229,0	112,9	89,1
Korxonalar o'z mablag'lari	2 734,3	183,5	15,0
aholi mablag'lari	1 126,7	111,3	6,2
to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar	12 211,9	104,2	67,0
tijorat banki kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	156,1	100,7	0,9


Markazlashgan investitsiyalar manbalari bo'yicha ulushi, % da (2025-yil yanvar-iyun)



Markazlashmagan investitsiyalar manbalari bo'yicha ulushi, % da (2025- yil yanvar- iyun)



Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar (jami hajmdagi ulushi, % da)



2025-yil yanvar-iyun oylarida asosiy kapitalga investitsiyalarning eng yuqori ulishi to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya va kreditlar hisobiga to‘g‘ri kelib, 2024-yilning yanvar-iyun oylarida 12 211,9 mlrd. so‘m yoki jami investitsiyalarning 67,0 % tashkil etdi.




Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar


Hududlar	Jami		shu jumladan: to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya va kreditlar	
	mlrd. so‘m	o‘shish sur‘ati, % da	mlrd. so‘m	o‘shish sur‘ati, % da
➤ Viloyat bo‘yicha	18 214,1	112,0	12 211,9	104,2
shaharlar:				
➤ Navoiy	1 578,8	54,0	1 106,2	45,8
➤ Zarafshon	624,3	108,2	191,0	93,8
➤ G‘ozg‘on	386,4	2,4 m.	363,6	2,4 m.
tumanlar:				
➤ Karmana	4 932,2	2,5 m.	2 894,8	6,3 m.
➤ Konimex	691,1	116,7	100,5	79,5
➤ Qiziltepa	634,4	110,6	252,3	127,2
➤ Navbahor	998,3	2,4 m.	309,5	154,3
➤ Nurota	4 221,2	2,1 m.	4 029,3	2,2 m.
➤ Tomdi	1 554,6	26,1	1 507,0	27,3
➤ Uchquduq	1 451,0	2,1 m.	1 340,1	2,4 m.
➤ Xatirchi	1 141,8	2,9 m.	117,6	148,8

Investorlar – yuridik va jismoniy shaxslar bo‘lib, qarorlarni qabul qiluvchi va o‘z mablag‘lari, qarz mablag‘lari yoki jalb qilingan mablag‘larni investitsiya ko‘rinishida investitsion loyihalarga kiritishni amalga oshiruvchi hamda ulardan maqsadli foydalanilishini ta‘minlab beruvchi investitsion faoliyat subyektlari hisoblanadi.

2025-yil yanvar-iyun oylari yakunlari bo'yicha hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalarning o'sish sur'atlari, % da



Hududlar kesimida jami asosiy kapitalga investitsiyalar ulushi, % da




2025-yilning yanvar-iyun oylarida jami asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning asosiy qismi, ya'ni 59,0 foizi viloyatning uch hududida, jumladan Karmana tumanida – 27,1 %, Nurota tumanida – 23,2 % va Navoiy shahrida – 8,7 % investitsiyalar o'zlashtirildi.




Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi (2025-yil yanvar-iyun)

	Jami	Shu jumladan, mulkchilik shakllari bo'yicha	
		davlat	nodavlat
Jami, mlrd. so'm	18 214,1	2 339,9	15 874,2
<i>shu jumladan:</i>			
umumiy hajmga nisbatan, % da	100,0	12,8	87,2
qurilish-montaj ishlari	12 241,9	1 808,8	10 433,1
mashina, uskunalar, transport vositalari ishlab chiqarish va xo'jalik jihozlari	5 139,1	487,2	4 651,9
boshqa harajatlar	833,1	43,9	789,2

Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi, mlrd. so'm



Asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi, % da




2025-yil yanvar- iyun oylarida asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalarning texnologik tarkibida Navoiy viloyati bo‘yicha mashina, uskunalar, transport vositalari ishlab chiqarish va xo‘jalik jihozlari ulushi- 28,2 foiz, qurilish-montaj ishlari- 67,2 foiz hamda boshqa xarajatlar- 4,6 foizni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha asosiy kapitalga investitsiyalarning o‘zlashtirilishi: qishloq xo‘jaligida 799,6 mlrd. so‘m (jami investitsiyalar hajmidagi ulushi 4,4 %), qurilishda 369,4 mlrd. so‘m (2,0 %), tashish va saqlash sohasida 324,9 mlrd. so‘m (1,8 %), sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatishda 55,0 mlrd. so‘m (0,3 %), ulgurji va chakana savdo, motorli transport vositalari va motosikllarni ta‘mirlashda 152,1 mlrd. so‘m (0,8 %), turar-joy qurilishiga investitsiyalarda 618,3 (3,4 %), elektr energiyasi, gaz, bug‘ va kondensiyalangan havoda 5 644,7 mlrd. so‘m (31,0 %), ishlab chiqarish sanoatida 6 955,4 mlrd. so‘m (38,2 %), tog‘-kon sanoatida 1 147,3 mlrd. so‘m (6,3 %), suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig‘ish va qayta foydalanishda 1 674,6 mlrd. so‘m (9,2 %), yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarda 69,7 mlrd. so‘m (0,4 %), axborot va aloqada 10,6 mlrd. so‘m (0,06 %), moliya va sug‘urta faoliyatida 4,0 mlrd. so‘m (0,02 %), kasbiy, ilmiy va texnik faoliyatida 6,3 mlrd. so‘m (0,03 %), ta‘limda 79,1 mlrd. so‘m (0,4 %), san‘at, ko‘ngil ochish va dam olishda 38,9 mlrd. so‘m (0,2 %), hamda boshqa faoliyat turlari bo‘yicha 264,2 mlrd. so‘m (1,5 %) ni tashkil etdi.

**2025-yil yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
asosiy kapitalga investitsiyalar tarkibi**
(umumiy hajmga nisbatan, % da)

	Hajmi, mlrd so'm	umumiy hajmga nisbatan, % da	
		2024-y.	2025-y.
Asosiy kapitalga investitsiyalar – jami	18 214,1	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>			
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	799,6	2,8	4,4
tog'-kon sanoati	1 147,3	13,7	6,3
ishlab chiqarish sanoati	6 955,4	47,9	38,2
elektr energiyasi, gaz, bug' va kondensiyalangan havo	5 644,7	20,8	31,0
suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta foydalanish	1 674,6	0,3	9,2
Qurilish	369,4	5,9	2,0
ulgurji va chakana savdo, motorli transport vositalari va motosikllarni ta'mirlash	152,1	1,6	0,8
tashish va saqlash	324,9	0,8	1,8
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	69,7	0,4	0,4
axborot va aloqa	10,6	0,3	0,06
moliya va sug'urta faoliyati	4,0	0,1	0,02
kasbiy, ilmiy va texnik faoliyati	6,3	0,07	0,03
ta'lim	79,1	0,3	0,4
sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	55,0	0,5	0,3
san'at, ko'ngil ochish va dam olish	38,9	0,03	0,2
turar-joy qurilishiga investitsiyalar	618,3	3,1	3,4
boshqa faoliyat turlari	264,2	1,4	1,5

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan asosiy kapitalga investitsiyalar (ming so'mda)



Ijtimoiy soha obyektlarining qurilishi (2025- yil yanvar-iyun oylari)

2025- yilning yanvar-iyun oylarida umumiy maydoni 334,7 ming kv.m (2024-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 102,9 %) bo'lgan 981 ta turar joylar, jumladan 271,8 ming kv.m. (2024-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 92,4%) bo'lgan 796 ta turar joylar qishloq joylarda ishga tushirildi.


Turar-joylarni ishga tushirish

	<i>Xonadonlar soni, birlik</i>	<i>Maydoni, ming kv.m</i>
Viloyat bo'yicha jami:	981	334,7
<i>shaharlar</i>		
Navoiy	33	11,4
Zarafshon	18	6,3
G'ozg'on	3	1,1
<i>tumanlar</i>		
Konimex	10	3,5
Qiziltepa	185	62,9
Navbahor	129	43,2
Karmana	202	66,7
Nurota	120	42,0
Tomdi	5	1,1
Uchquduq	11	3,8
Xatirchi	265	92,7




Bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o‘shish sur‘atlari (2025-yil yanvar-iyun oylari)

2025-yil yanvar-iyun oylarida Navoiy viloyatida jami 5 981,1 mlrd. so‘mlik qurilish ishlari bajarilib, o‘shish sur‘ati 2024-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 94,9 foizni tashkil etdi.



2025-yil yanvar-iyun oylarida umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi




2025-yil yanvar-iyun oylarida yangi qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 1 289,5 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Shuningdek, jami yangi qurilish ishlari hajmidagi yirik qurilish tashkilotlari ulushi 21,6 foizni tashkil etdi.




Qurilish ishlari hajmining tarkibi va ulushi (2025- yil yanvar- iyun oylari)

Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo'lgan korxonalar va tashkilotlar tarkibi bo'yicha bo'linadi.




Qurilish ishlari hajmida yirik tashkilotlar ulushi, % da



Ma'lumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu – o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.




Bajarilgan qurilish ishlari hajmida yirik tashkilotlarning ulushi va o'sish sur'ati, % da





Qurilish ishlari umumiy hajmida kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi, % da




Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2025-yil yanvar-iyun oylarida qurilish ishlari bajarilgan boshqa tashkilotlarga nisbatan kamayganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 36,2 foizi to'g'ri kelib, 2025-yil yanvar-iyun oylari ko'rsatkichi 4,5 punktga ko'paydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2024-yil yanvar-iyungacha nisbatan 107,2 foizni tashkil etgan holda 2 435,5 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.



Qurilish ishlari umumiy hajmida norasmiy sektorning ulushi



ulushi % da, mlrd. so'm



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 377,7 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa 5 603,4 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda 6,3 % va 93,7 % ni tashkil etdi.



Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, % da



Davlat mulki



Nodavlat mulk



Hududlar kesimida mulkchilik shakllari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari (2025-yil yanvar-iyun oylari)

	Qurilish ishlari hajmi, mlrd. so'm	Nodavlat mulk		Davlat mulk	
		mlrd. so'm	ulushi, % da	mlrd. so'm	ulushi, % da
Jami	5 981,1	5 603,4	100,0	377,7	100,0
Navoiy sh.	790,6	677,6	12,1	113,0	29,9
Zarafshon sh.	547,9	547,9	9,8	-	-
G'azg'on sh.	17,0	17,0	0,3	-	-
Konimex t.	99,2	82,9	1,5	16,3	4,3
Qiziltepa t.	705,8	579,6	10,3	126,2	33,4
Navbahor t.	340,3	306,2	5,5	34,1	9,0
Karmana t.	379,2	360,3	6,4	18,9	5,0
Nurota t.	228,1	209,7	3,7	18,4	4,9
Tomdi t.	565,3	557,8	10,0	7,5	2,0
Uchquduq t.	243,8	230,2	4,1	13,6	3,6
Xatirchi t.	365,0	335,3	6,0	29,7	7,9



Navoiy viloyati iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari, % da

2024- yil yanvar-iyun



2025- yil yanvar-iyun



Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy hamda yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.




Bino va inshootlar qurilishi

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 16,9 foiz tashkil etib, 2024-yilning yanvar-iyun oylari ko'rsatkichiga nisbatan 11,7 punktga kamaydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2024-yilning yanvar-iyun oylari ko'rsatkichiga nisbatan 4,6 punktga ko'payib, 31,1 foizni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2024-yilning yanvar-iyun oylari ko'rsatkichiga nisbatan 7,1 foiz punktga ko'paydi, 52,0 foizni tashkil etdi.

Jami bino va inshootlarni qurish – 4 336,9 mlrd. so'm.






Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 39,7 % ni tashkil etdi va 2024- yilning yanvar- iyun oylariga nisbatan 1,8 % punktga ko'paydi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 60,3 % (1,8 % punktga kamaydi).




Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2024- yilning yanvar- iyun oylariga nisbatan 1,6 % punktga ko'payib va 4,5 % ni tashkil etdi.

Qolgan 95,5 %i kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2024- yilning yanvar- iyun oylariga nisbatan 1,6 % punktga kamaydi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari- 268,5 mlrd. so'm.







Hududlar kesimida qurilish ishlari (2025- yil yanvar- iyun oylarida)

Hududlar kesimida eng yuqori hajm Navoiy shahrida (790,6 mlrd. so‘m), Qiziltepa tumanida (705,8 mlrd. so‘m) va Tomdi tumanida (565,3 mlrd. so‘m) to‘g‘ri keldi.

Eng yuqori hajm (mlrd. so‘m)



Hududlar kesimida eng kam hajm G‘ozg‘on shahrida (17,0 mlrd. so‘m), Konimex tumanida (99,2 mlrd. so‘m) va Nurota tumanida (228,1 mlrd. so‘m), to‘g‘ri keldi.





2025-yil yanvar-iyun oylarida umumiy hajmdan yangi qurilish ishlari hajmi

2025-yilning yanvar-iyun oylarida hududlar kesimida yangi qurilish ishlari bo'yicha yuqori hajm, Navoiy shahrida (527,8 mlrd. so'm), Tomdi tumanida (519,5 mlrd. so'm), Qiziltepa tumanida (509,6 mlrd. so'm) va Zarafshon shahrida (470,8 mlrd. so'm) qayd etildi.

	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	Shu jumladan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish va texnik qayta quollantirish, mlrd. so'm
Navoiy viloyati	5 981,1	94,9	4 809,1
<i>shaharlar:</i>			
Navoiy	790,6	101,5	527,8
Zarafshon	547,9	100,8	470,8
G'ozg'on	17,0	101,9	3,4
<i>tumanlar:</i>			
Konimex	99,2	101,1	48,1
Qiziltepa	705,8	110,5	509,6
Navbahor	340,3	102,3	273,3
Karmana	379,2	102,8	248,0
Nurota	228,1	66,3	179,4
Tomdi	565,3	52,3	519,5
Uchquduq	243,8	189,8	218,6
Xatirchi	365,0	104,3	272,1



Ma'lumot uchun: Yangi qurilish – yangi quvvatlarni yaratish maqsadida, yangi hududlarda amalga oshiriladigan asosiy, yordamchi va xizmat ko'rsatish maqsadlari uchun obyektlar (bino va inshootlar) kompleksini qurish.